

“MIRZO ULUG’BEK SIYMOSINING JAHON TAMADDUNIDAGI O’RNI”

O’ktamov Murodjon Xayrulla o’g’li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro munosabatlar fakulteti 1-bosqich talabasi
E-mail: murodjonoktamov0710@gmail.com
Telefon raqam: +998504449228

Qosimov Asadbek Alimardon o’g’li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro munosabatlar fakulteti 1-bosqich talabasi
E-mail: qosimovasadbek@icloud.com
Telefon raqam: +998940114757

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mirzo Ulug’bekning hayoti hamda ijtimoiy-siyosiy faoliyatining muhim jihatlari yoritib berilgan. Shuningdek, uning boy ilmiy merosi jahon madaniyati va ilm-fan taraqqiyotida tutgan o’rni kompleks tarzda muhokama qilingan. Ayniqsa, “Ziji Sultoniy” asarining mazmuni va ahamiyati bayon etilgan. Maqolada Mirzo Ulug’bekning ham hukmdor, ham buyuk olim sifatidagi qisqa muddatli faoliyati turli xil tarixiy dalillar hamda misollar orqali ochib berilgan. Bundan tashqari, uning butun dunyo ilm-fan hamjamiyatidagi merosiga bo’lgan hurmat va qiziqish ham chuqur tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Mirzo Ulug’bek, Samarqand, astronom, hukmdor, buyuk olim, madrasa, rasadxona, “Ziji Sultoniy”

“РОЛЬ МИРЗО УЛУГБЕКА В МИРОВОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ”

Аннотация: В данной статье освещаются важные аспекты жизни и социально-политической деятельности Мирзо Улугбека. Также всесторонне рассматривается роль его богатого научного наследия в развитии мировой культуры и науки. В частности, описывается содержание и значение работы “Зиджи Султаний”. Статья раскрывает краткосрочную деятельность Мирзо Улугбека как правителя и великого ученого на основе различных исторических свидетельств и примеров. Кроме того, глубоко анализируется уважение и интерес к его наследию в мировом научном сообществе.

Ключевые слова: Мирзо Улугбек, Самарканд, астроном, правитель, великий ученый, медресе, обсерватория, “Зиджи Султаний”

“THE ROLE OF MIRZO ULUGBEK IN WORLD CIVILIZATION”

Abstract: This article highlights the important aspects of Mirzo Ulugbek’s life and socio-political activities. Also, the role of his rich scientific heritage in the development of world culture and science is discussed in a comprehensive manner. In particular, the content and significance of the work “Ziji Sultaniy” is described. The article reveals the short-term activity of Mirzo Ulugbek as both a ruler and a great scientist through various historical evidence and examples. In addition, the respect and interest in his legacy in the world scientific community is also deeply analyzed.

Keywords: Mirzo Ulugbek, Samarkand, astronomer, ruler, great scientist, madrasa, observatory, “Ziji Sultaniy”

Kirish: Insoniyat tarixida shunday shaxslar yetishib chiqadiki, ular butun boshli olomon ustidan hukmronlik qilayotgan davrlar nafaqat siyosiy kuch, balki ilm-fan va ma'naviy yuksalish davri sifatida tarix zarvaraqlariga oltin harflar bilan qayd etiladi. Ularning hayoti ko'pincha qilich va qalam, toj va koinot sirlari o'rtasidagi tuganmas kurash bilan o'tadi. Xo'sh, tarixdagi buyuk hukmdorlar ichida o'z zamonasining odamlaridan ancha ilgarilab ketgan va yulduzlar tilini tushuna olgan bu hukmdor kim edi? Ha, bu biz bilgan o'sha “Padarkush” voqeasining qurboni bo'lgan Mirzo Ulug'bek edi. Sohibqiron Amir Temurning suyukli nabirasi, Shohrux Mirzoning o'g'li Mirzo Ulug'bek (asl ismi Muhammad Tarag'ay bo'lgan) hijriy 796-yil, milodiy 1394-yilning 22-mart sanasida Eronning Sultoniya shahrida Amir Temurning bu hududlarga bo'lgan yurishlari paytida tug'iladi. U 1409-yili, 16 yoshidayoq Shohruxning to'ng'ich o'g'li sifatida otasining izni bilan Samarqand hokimi etib tayinlanadi. Ulug'bek boshqaruvi davrida Samarqand yirik madaniyat va ilm-fan markazi sifatida butun dunyoga mashhur bo'ladi. Otasi Shohrux vafotidan so'ng (1447 yilning mart oyida) mamlakat taxtini egallaydi, lekin 3 yil o'tmasdanoq o'z o'g'li Abdullatifning xiyonatiga giriftor bo'ladi va o'g'lining ko'rsatmasi bilan o'ldiriladi.[1] Ulug'bek haqidagi eng qisqa biografik ma'lumotlar shulardan iborat edi, lekin bu qisqa satrlar ortida taniqli davlat arbobi, adolatli hukmdor, tabiat fanlari rivojiga ulkan hissa qo'shgan mashhur astronom, hozirgi kunga qadar astronomiya sohasida foydalanib kelinayotgan “Ziji Sultoniy” asari muallifi va shuningdek, Samarqanddagi ulkan rasadxonaning bunyodkori hisoblangan bu kishining taxt va tafakkur o'rtasidagi shonli, ammo fojiali vakun topgan ibratli hayoti turibdi. Mirzo Ulug'bekdek buyuk shaxs haqida so'z yuritilar ekan tabiiyki, uning ulug'vorligini his etish uchun uning faoliyatiga nazar tashlash kifoya emas, balki uning zamondoshlari, ilmiy safdoshlari va, albatta, uning shaxsiyatiga qiziqish bildirgan tarixchi-olimlarning qo'l yozmalari hamda ilmiy manbalariga murojaat etishimiz lozim. Xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining mashhur “Boburnoma” asarida Ulug'bekning ilmiy va siyosiy faoliyatiga to'xtalar ekan, shunday yozadi: “Mirzo Ulug'bek Samarqandda rasadxona yasatib, “Ziji Sultoniy” tuzdi... Yana madrasa va xonaqohlar yasatdi. Mirzo Ulug'bekning ilmi ko'p edi”. [2] Bu e'tirof allomaning nafaqat buyuk hukmdor, balki ilm-fan rivojiga beqiyos hissa qo'shgan zot ekanligini tarixiy manbalar ham tasdiqlashidan dalolat beradi.

Asosiy qism: Movarounnahrda hukmdorlik taxtini egallagach unda ham birgina oliy maqsad paydo bo'ladi va bu, albatta, boshqa temuriy shaxzodalar singari Samarqandning poytaxt sifatidagi davlatlararo nufuzini saqlab qolish va bobosi asos solgan ulkan saltanatning siyosiy barqarorligini hamda madaniy yuksalishini yanada yuksak cho'qqilarga olib chiqishdanni iborat edi. Mirzo Ulug'bek esa o'z maqsadi yo'lida doimo xalq manfaatini ko'zlab faoliyat yuritgan va muhim qarorlarni ham adolatli tarzda, xalq farovonligini o'ylagan holda qabul qilgandi. Shu o'rinda tarixchi Mirzo Muhammad Haydarning Mirzo Ulug'bek haqidagi ta'riflarini eslab o'tish maqsadga muvofiq bo'lar edi – u o'zining “Tarixi Rashidiy” asarida Mirzo Ulug'bekni nafaqat buyuk davlat arbobi, balki Turon zaminida ilm-fanning yuksalishini o'zining eng oliy maqsadiga aylantirgan hukmdor sifatida ta'riflab, uning adolatparvarligini alohida e'tirof etadi. [3] Xo'sh, uning boshqaruvi davrida Movarounnahr hududida qanday islohotlar amalga oshirilgan edi? Mirzo Ulug'bek boshqaruvi davrida, ayniqsa, Samarqand shahrining qiyofasi tubdan o'zgardi. U shaharni nafaqat siyosiy markaz, balki butun dunyo ilm-fani, madaniyati va me'morchiligining “poytaxt”iga aylantirdi. Yuqorida

ta'kidlab o'tilganidek, Mirzo Ulug'bek ham hukmdor, ham olim sifatida odamlar orasida mashhur edi. U 1417-1420-yillarda Registon maydonida barpo ettirgan madrasa zamonasining eng nufuzli ilmiy markazlaridan biri edi. U shunchaki diniy maktab emas, balki bu yerda talabalar aniq fanlar, xususan, matematika, astronomiya, geometriya kabi fanlarni puxta o'zlashtira oladigan oliy bilim yurti edi (bugungi kun tili bilan aytganda universitet edi). Bu dargohda o'z davrining eng yetuk olimlari – Qozizoda Rumi, G'iyosiddin al-Koshiy, Ali Qushchi kabi olimlar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanganlar va shu bilan birgalikda o'sha



davrning eng eng murakkab ilmiy muammolarini yechishda Mirzo Ulug'bekka hamkorlik qilishgan.[1] Madrasadagi ilmiy muhit va ko'p yillik nazariy izlanishlar vaqt o'tgani sayin amaliy fanlar sohasida yangi bosqichni talab qila boshladi. Shu boisdan ham, Mirzo Ulug'bek 1424-yilda Movarounnahrlik olimlarning kelgusi tadqiqotlari uchun poydevor bo'ladigan ulkan rasadxonani barpo etishga qaror qiladi va 1428 yilda qurib bitkazildi. Rasadxonaning markaziy qismida o'rnatilgan, radiusi 40 metrga teng bo'lgan ulkan sekstant astronomik tadqiqotlarning yuqori aniqlikda amalga oshirilishini ta'minlab turgan.[1] Ushbu astronomik asbob yordamida Quyosh, Oy va sayyoralarning harakat traektoriyalari shunchalik aniqlik bilan hisoblanganki, qayd etilgan natijalar hozirgi zamonaviy hisob-kitoblarga juda yaqin kelardi. Ko'rib turibmizki, Mirzo Ulug'bek barpo etgan ilmiy-ma'rifiy muhit o'rta asrlar tarixi uchun ilm-fan sohasida yangi bosqich edi. Taniqli sharqshunos olim V.V.Bartold o'zining "Ulug'bek va uning zamonasi" nomli tadqiqotida mazkur ilmiy maskanning ahamiyati va nufuzini quyidagi jumlar bilan e'tirof etadi: "Samarqand rasadxonasi o'z davrida musulmon dunyosidagi eng kata rasadxona bo'lishi bilan birga, u yerda yig'ilgan olimlar jamoasi butun dunyo ilm-fani tarixida tengi yo'q astronomik maktabni tashkil qildi." [4] Aynan shu zaminda dunyo astronomiya ilmida inqilob qilgan Mirzo Ulug'bek qalamiga mansub "Ziji Sultoni" ("Yulduzlar jadvali") asari yaratildi. Ushbu asar 1018 ta yulduzning holati va harakatini o'ta aniqlik bilan tasniflab, koinotni tadqiq etishda uzoq davrlardan beri insonlar tomonidan qabul qilingan xatoliklarni bartaraf etdi.[1] Aytib o'tilganidek, uning hisob-kitoblaridagi aniqlik shu darajada yuqori ediki, bu ma'lumotlarni nafaqat Sharqda, balki Yevropaning astronomik tadqiqotlar o'tkaziladigan rasadxonalarida ham bir necha asr davomida asosiy ilmiy manba sifatida foydalanib kelindi. Mirzo Ulug'bek barpo etgan ilmiy maktabdan bizgacha shunday bir beqiyos meros qolganki, u hattoki butun dunyo tarixchilari tomonidan ham hozirgacha yuksak baholanib kelinmoqda. "Ulug'bekning "Ziji Sultoni" asari o'rta asrlar astronomiyasining eng yuqori cho'qqisidir. Undagi yulduzlar jadvali butun dunyodagi eng aniq kuzatuvlari to'plami bo'lib, u teleskop yaratilgan davrgacha astronomiyaning mukammal namunasi edi", - deya ta'rif beradi Islom astronomiyasi tarixi bo'yicha dunyoning yetakchi mutaxassislaridan biri, professor Edvard Kennedi

o'zining "A survey of Islamic Astronomic Tables" asarida.[5]



Haqiqatan ham, Ulug'bek davrida Movarounnahr poyatxi ham me'moriy, ham ilmiy jihatdan yuqori darajaga ko'tarildi. Shu bilan birgalikda, shahar atrofida ko'plab bog'-rog'lar, karvonsaroylar va boshqa jamoat binolari qurildi. Albatta, bunday rivojlanish zamirida Mirzo Ulug'bekning ichki hamda tashqi siyosatdagi adolatli boshqaruvini ham ahamiyati beqiyosdir. Amir Temur vafotidan keyin savdo yo'llarining xavfsizligini ta'minlay olinganligi, hunarmandchilikning qo'llab-quvvatlanganligi va soliq hamda boj tizimining tartibga solinganligi Turon zaminiga xorijlik savdogarlar va olimlarning uzluksiz ravishda kelishiga sabab bo'ldi. Bir so'z bilan aytganda, Samarqand ilm-fan va madaniyatning o'ziga xos "oltin davri" - renessansini boshdan kechirdi.

Lekin, afsuski, ilm dunyosida koinot sirlarini ocha olgan shunday bir buyuk zot o'z o'g'lining xiyonatiga duchor bo'ldi. 1449-yili o'g'li Abdullatifning ko'rsatmasi bilan qatl etilgan Ulug'bekning fojiali o'limi nafaqat bir shaxsning, balki butun bir renessansning tugashi edi. Ammo, tarix shuni ko'rsatdiki, bu insonning o'limi uning bizga qoldirgan ilmiy-ma'rifiy merosini cheklay olmadi, aksincha uning "Ziji jadidi Ko'ragoniy", "Tarixi arba ulus" kabi chuqur mazmunga va sir-sinoatga ega asarlari va Samarqandda qad rostlab turgan ilmiy maktabi bugungi kunda ham ma'naviyatning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Mustaqillikka erishilgach, buyuk allomaning ilmiy va ma'naviy merosini tiklash va targ'ib qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, 1994-yil bu zotning qilgan ishlari xalqaro miqyosda e'tirof etildi – YUNESKO qarori bilan ushbu yil allomaning 600 yillik yubileyi butun dunyo bo'ylab nishonlandi, O'zbekistonda ham xuddi shu yilda uning nomi bilan bog'liq ko'plab tadbirlar o'tkazildi.[6] Shundan so'ng uning nomini abadiylashtirish maqsadida universitetlar, xiyobon-u ko'chalar, metropoliten bekatlariga alloma nomi berildi. Eng quvonarlisi shundaki, uning ramziy haykallari Toshkent va Samarqand shaharlarida va hattoki, Fransiyada o'rnatilishi uning nafaqat mamlakatimiz miqyosida, balki xalqaro miqyosda ham e'tirofini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, allomaning yorqin va fojiali hayoti o'zbek madaniyati va san'atida chuqur iz qoldirib, ko'plab ijodkorlar va rejissyorlarning ilhom manbai bo'lib xizmat qildi. Jumladan, Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" pyesasida, Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida buyuk zotning siyosiy adabiyotda mahorat bilan aks ettirildi. Shu bilan birga, "Ulug'bek yulduzi" badiiy filmi va "Ulug'bek xazinasi" videofilmi uning shaxsiyatini hamda ilmiy merosini teleekranlarda abadiylashtirdi.[7] Aytib o'tish joizki, bu ijodiy ishlar Mirzo Ulug'bekning tarixiy xizmatlarini anglashda va uni kelajak avlodga yetkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa: Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Mirzo Ulug'bek o'z davrining ham siyosiy rahbari sifatida, ham ilm-fanni yangi bosqichga olib chiqqan mutafakkiri sifatida insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirdi. Mirzo Ulug'bek siymosi kelajak avlod uchun hamisha bilimga intilish va adolatli jamiyat qurishning o'lmas namaunasi bo'lib qoladi. Zero, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganidek, Mirzo Ulug'bek qisqa umr ko'rishiga qaramay, uning yashab o'tgan umri biz uchun har tomonlama o'rnak bo'la oladi.[8]

-

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. [https://n.ziyouz.com/books/darsliklar/yangi/7-sinf/O'zbekiston%20tarixi.%207-sinf%20\(2017,%20A.Muhammadjonov\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/darsliklar/yangi/7-sinf/O'zbekiston%20tarixi.%207-sinf%20(2017,%20A.Muhammadjonov).pdf)
2. <https://ziyouz.com/index.php/books/uzbek-adabiyoti/1105-boburnoma>
3. <https://scholar.google.com/scholar?q=Tarixi+Rashidiy+Mirzo+Ulug%27bek>
4. Bartold, V. V. (1918). *Ulug'bek va uning zamonasi*. (Qayta nashr: Toshkent, "Fan" nashriyoti).
5. Kennedy, E. S. (1956). "A Survey of Islamic Astronomical Tables".
6. <https://www.britannica.com/biography/Ulugh-Beg>
7. https://encyclopedia.uz/index.php/Mirzo_Ulug'bek
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat", 2010. – 176 b.